

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN HAMKORLIKLER

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich magistranti

Jabborov Sunnatullo Ilhomjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqilligini e'lon qilgan kundan boshlab, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida tub islohotlar amalga oshirishga kirishdi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Hindiston – Markaziy Osiyo" birinchi sammitidagi nutqida ta'kidlaganidek:

"O'zbekiston-Hindiston aloqalarining ildizlari juda olis tarixga borib taqaladi. Ming yillar mobaynida xalqlarimiz o'rtasida faol gumanitar almashinuvlar va savdo aloqalari bo'lgan. Madaniyatlarimiz, an'analarimiz va ma'naviy qadriyatlarimiz bir-birini boyitib kelgan. Hindiston bilan an'anaviy yaqin, do'stona va ko'p tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida mintaqaviy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini strategik ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olishni taklif etamiz.

Birinchi ustuvor yo'nalish – ta'lif va sog'liqni saqlash sohlarida faol hamkorlik qilish orqali, Hindistonning ilg'or tajribasi, bilim va texnologiyalarini keng joriy qilish asosida inson kapitalini rivojlantirish.

Keyingi yillarda hindistonlik hamkorlar bilan birgalikda mamlakatimizda qator zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari tashkil etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida Hindiston bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surish, vaksinatsiya to'g'risidagi sertifikatlarni o'zaro tan olishni jadallashtirish, virusolog vrachlar tayyorlash dasturini boshlash, ayurveda ta'lifotlari va yoga amaliyoti hamda Ibn Sino risolalari asosida zamonaviy sog'liqni saqlash yutuqlarini to'ldirib turadigan an'anaviy tibbiyot usullarini joriy qilishni muhim deb hisoblaymiz."¹

¹ [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Hindiston – Markaziy Osiyo" birinchi sammitidagi nutqi \(president.uz\)](http://president.uz)

1991-yil O'zbekiston mustaqilligini dunyo hamjamiyati tan olgandan boshlab, O'zbekiston-Hindiston ilm-fan yo'nalishidagi hamkorlik aloqalarida yangi davr boshlandi. "Sharqshunoslik institutida o'zbek olimlari bilan bir qatorda hind mutaxassislari J.Sarkor, Qamar Rayis, Tivariy Faruqiy, Xoshimiy, Suryakumariy, Muhammad Amin kabilar faoliyat yuritib, o'z ma'ruzalar bilan o'zbek talabalariga hind tilini mukammal o'rganishida ko'mak bergenlar. O'zbekistonda ko'p yillar mobaynida hindiy tili ustozi Madan Mo'han Hardat faoliyat ko'rsatgan. O'z o'rnida bu olim xalqlarimiz o'rtasidagi iml-fan aloqalarini rivojlantirish borasida katta xizmatlar qilgan. Qisqa muddatda O'zbekistonda ham hindshunos mutasassislar yetishib chiqdi. R.Qayumov, S.Chernikova, O.Shamatov, T.Holmirzayev, R.G'ulomova, X.Begizova, Sh.Jalilov, A.Aulova, O.Polinova, T.Xo'jayevlar hind tili bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va ilmiy darajaga erishganlar."²

So'nggi yillarda O'zbekiston va Hindiston o'rtasida ta'lim sohasida qator hamkorliklar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning bir qator oliy ta'lim muassasalari Hindistonning nufuzli ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatmoqda.

Xususan Toshkent davlat yuridik universiteti va Hindistonning Milliy sud ekspertizasi universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Memorandum ikki universitet mutaxassislari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, ilmiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlash, har ikki mamlakatda yuridik ta'lim va fanni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma'lumot uchun, Hindistonning Milliy sud ekspertizasi universiteti milliy institut maqomiga ega bo'lgan sud ekspertizasi, kriminologiya, kiberxavfsizlik, raqamli sud ekspertizasi va boshqa ekspertiza fanlarga bag'ishlangan dunyodagi birinchi va yagona universitet hisoblanadi. Universitet 2008-yilda Gujarat qonunchilik assambleyasining 17-qarori bilan Gujarat sud ekspertizasi universiteti sifatida tashkil etilgan. 2020-yilda Hindiston Respublikasi hukumatining qarori bilan milliy ahamiyatga ega bo'lgan universitet maqomi berilgan.³

Jahonning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatalishi mamlakatimizda tibbiyot, ta'lim, madaniyat va san'at, zamonaviy axborot-kommunikatsiya

² Ўзбекистонда ижтимоий фан. 2005. № 1-2. Б. 60-65.

³ [TDYU Hindiston universitetlari bilan hamkorlikni boshladi \(tsul.uz\)](http://TDYU Hindiston universitetlari bilan hamkorlikni boshladi (tsul.uz))

texnologiyalari, sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash borasida sezilarli natijalarga erishilishiga xizmat qilishi shubhasiz albatta.

Bugungi kunga kelib Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbekistondagi xorijiy mamlakatlarda o'z filialini tashkil etgan ilk oliy ta'lim muassasasiga aylandi. Gap shundaki, institut Hindistonning Nyu-Deli shahridan 20 km. uzoqlikda joylashgan Noida xalqaro universiteti bazasida o'z filialini tashkil etish bo'yicha memorandum imzoladi. Unga binoan 2020-2021 o'quv yilidan institut professor-o'qituvchilari MBBS (Tibbiyot va jarrohlik bakalavri) dasturi asosida o'qishga qabul qilingan Hindiston fuqarolariga o'z mamlakatlariда tahlil berishadi. Kelishuvga binoan, Noida xalqaro universiteti ta'lim jarayoni uchun zarur infratuzilma, moddiy-texnik baza, o'quv laboratoriyalari hamda klinik bazalardan foydalanish bo'yicha yordam ko'rsatadi. O'qishga qabul qilingan talabalar birinchi ikki yilni Hindistonda, qolgan 3 yilni esa Buxoroda o'tkazishadi. Bu bugungi pandemiya sharoitida hind talabalarining o'z vatanlarida turib tahlil olishlari uchun ham qulay imkoniyatdir.⁴

So'nggi yillarda O'zbekiston va Hindiston AKT sohasida ham samarali hamkorlik ishlarini olib bormoqda. Xalqaro tajribani amaliyotda qo'llash, axborot texnologiyalari sohasida bilim almashish, shuningdek, sheriklik aloqalarini mustahkamlash maqsadida 2019-yil 18-martdan boshlab hindistonlik tajribali mutaxassis IT parkka maslahatchi sifatida jalb qilindi. Hindiston tajribasiga asoslanib, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. O'zbekistonda Biznes jarayonlari autsorsingi (BPO) yo'nalashini rivojlantirish maqsadida Hindistondan yirik BPO korxonalar jalb qilinib, ular yordamida mahalliy tadbirkorlarni shu yo'nalishda ish olib borish, ular uchun barcha kerakli treninglar tashkil etish mo'ljallangan. Shu bilan birga, IT park hamda Gujarat elektronika va dasturiy ta'minot assosiasiyasi o'rtaqidagi hamkorlik doirasida O'zbekistonning startap ekotizimini rivojlantirish to'g'risida memorandum imzolandi. Assosiasiya mutaxassislari ishtirokida IT parkning ikkinchi to'lqini inkubasiya va akselerasiya dasturlari uchun startap loyihalarga 169 ta tanlov o'tkazilib, 23 ta startap loyiha tanlab olindi.

Ayni vaqtda Toshkent shahridagi IT parkning yangi infratuzilma ob'yektlarini qurish konsepsiysi ishlab chiqilgan bo'lib, unda umumiyl maydoni 408 ming kvadrat metr bo'lgan 17 ta infratuzilma ob'yekti qurilmoqda. IT park hamda "iCreate" Xalqaro

⁴ [Бухоро давлат тиббиёт институти Ўзбекистон ОТМлари ичida биринчи бўлиб хорижда ўз филиалини очди - Халқ сўзи \(xs.uz\)](http://xs.uz)

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 5, May 2024

tadbirkorlik va texnologiyalar markazi o'rtaсидаги hamkorlik doirasida 2021-yilning aprel oyida IT parkning biznes modelini ishlab chiqish va moliyaviy komponentlarni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan 4 ta onlayn o'quv sessiyasi o'tkazildi.⁵

Hozirda mamlakatimizda Hindistonning qator oliy ta'lim muassasalarining filiallari faoliyat yuritmoqda. Quyidagi jadvalda ular haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

№	Muassasa nomi	Tashkil etilgan vaqtি	Talabalar sig'imি	Yo'nalishlari
1	Jizzax shahridagi Sambhram universiteti	2021-yil	2021-2022 o'quv yilida 1 ming 501 nafar talaba qabul qilindi	1. Kompyuter fanlari va muhandislik; 2. Axborot fanlari va muhandislik; 3. Elektronika va kommunikatsiya texnologiyalari; 4. Mashinasozlik;
2	O'zbeistondagi Sharda universiteti	2019-yil	Bugungi kunda 400 dan ortiq talaba tahsil olmoqda	1. Kompyuter fanlari muhandisligi; 2. Biznes boshqaruvi; 3. Amaliy ingliz tili
3	Toshkent shahridagi Amity universiteti	2019-yil	Bugungi kunda 750 dan ortiq talaba tahsil olmoqda	1. Xalqaro boshlang'ich ta'lim 2. AT fanlari 3. Biznes boshqaruvi 4. Iqtisodiyot 5. Turizm 6. Texnologiya 7. AT fanlari magistri

⁵ "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022-yil 28-yanvar 19-son

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 5, May 2024

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkunki ikki davlat o'rtasida oliy ta'lim sohasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo shu bilan bir qatorda hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar juda ham ko'p. Biz bilamizki Hindiston tibbiyot sohasida dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi. Yurtimizda Hindistonnig tibbiyot sohasiga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalarini tashkil qilishimiz kerak. Mavjud OTM filiallarining deyarli barchasi asosan kompyuter texnologiyalari sohasiga ixtisoslashtirilgan. Buni yuqoridagi jadvalda ham ko'rish mumkun.